



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



YANGI O'ZBEKISTONDA FILOLOGIK TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA ISTIQBOLLARI

Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya MATERIALLARI

CURRENT ISSUES, SOLUTIONS, AND PROSPECTS OF
PHILOLOGICAL EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN

International Theoretical and Scientific Conference
PROCEEDINGS

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПУТИ РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ
РАЗВИТИЯ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ
УЗБЕКИСТАНЕ

Международная научно-теоретическую конференцию
МАТЕРИАЛЫ

24-oktabr, 2025



**“YANGI O‘ZBEKISTONDA
FILOLOGIK TA’LIMNING
DOLZARB MUAMMOLARI,
YECHIMLARI VA
ISTIQBOLLARI”**
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA FILOLOGIK TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI, YECHIMLARI
VA ISTIQBOLLARI”**

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

TASHKILIY QO‘MITASI

Tashkiliy qo‘mita raisi:

G‘.I. Muxamedov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

B.X. Eshchanov

S.B. Qorayev

D.B. Axmadjanov

O.A. Ortiqov

S.X. Gayupova

R.A. Ikramov

O‘.R.Saidov

N.D.Xolikova

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor.

Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor.

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor.

Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor.

Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘lim boshlig‘i.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri.

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini mudiri

Tashkiliy qo‘mita ishchi guruhi:

Davlatova A.D.

Sabitova T.

Kabirov M.T.

Tog‘ayeva G.J.

Muydinova A.U.

Shermatova U.Sh.

Rasulova R.B.

Mo‘ydinov Q.A.

Abdirimova I.K.

Duyseybayeva D.

Baykabilov U.

Bayzakov J.

Muxtarova Sh.

Raxmanova N.A

Xikmatov X.S.

Quchqorov H.H.

Murodova F.

Bekmurodov T.

Komilova G.

Xayrullayeva R.

Achilova E.S.

Usmanova Z.I.

Murodova R.

Shayxislamov N.Z.

Arzikulova S.A.

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini professori

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini professori

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini dotsenti v.b.

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi

“MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALDAGI NAZMIY ASARLARNING GRAFIK SHAKLLANTIRILISHI (1925-1929-YILLARDAGI SONLARI ASOSIDA)

Soatova Gulzoda Nurmamat qizi

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti v.b.dotsenti

E-POSTA: soatovagulzoda001@gmail.com;

soatovagulzoda@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-2064-8088

UO‘K: 821.512.133.09:070 821.512.133-92

Annotatsiya: Maqolada jurnaldagi she’rlarning statistikasi va grafik shakllantirilishi haqida so‘z yuritilib, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1925-1929-yillarida Cho‘lpon, N.Rahimiy, Elbek, G‘.Zafariy, Rahim Ali, A. Alaviy, Bonur, Bektosh, Botur, Oydin, G‘ayraty, H.Olimjon, Sh.Sulaymon, Botu, Oltoy, Gulbek, Mirtemir, Uyg‘un, Said Ahroriy, Majidiy, M.Alaviya, Mirhodiy, Yashin, Q.Hoshim, Yo‘qsil, Oybek, I.Usmoniy, Nodi Mirza kabi shoirlar tomonidan jami 178 ta she’r berilganligi, ular turli mavzularda: tabiat tasviri, vatan tuyg‘usi, ayollar ozodligi haqida va inqilobga atalgan she’rlar, qasidalar hamda she’riy dostonlar, boshqa tillardan tarjima qilingan she’rlar ekanligi haqida ma’lumot beriladi. Uzoq yillik an’analarga ega o‘zbek she’riyatida ushbu shoirlarning aksariyati milliy adabiyotimizda mavjud poetik shakl va vositalar bilan jahon she’riyatidagi shakl va vositalarni uyg‘unlikda mujassam etgan ulkan she’riy meros qoldirganligi, ularning adabiy merosini o‘rganish asnosida taraqqiyot, yangilanish sari odimlashi, she’rlarining grafik shakllantirilishida ham kuzatilganligi tasniflanadi. Avvalo, “she’rning grafik shakllantirilishi” deganda nimalarni nazarda tutishimiz aniqlashtirilib, bu borada Botu, Elbek, Oybek, N.Rahimiyning she’rlariga to‘xtalib o‘tiladi. Grafik qurilishi yuzasidan tayanch nusxa va mavjud keyingi nashrlardagi tafovutlar aniqlanadi va ularga munosabat bildiriladi. She’rning grafik shakllanishi yuzasidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklar yuzasidan xulosaviy fikrlar aytiladi.

Kalit so‘zlar. Grafik shakllanish, tayanch nusxa, yangi nashrlar, band, misra, to‘rtlik, qofiyalanish.

Anotation: The article deals with the statistics and graphic formation of poems in the magazine. In the magazine “Education and Teacher” between 1925-1929 a total of 178 poems were written by poets such as Chulpon, N, Rakhimiy, Elbek, G‘. Zafariy, Rakhim Ali, A Alavi, Bonur, Bektash, Botur, Aydin, G‘ayraty, H.Olimjon,

Sh.Sulaiman, Botu, Altay, Gulbek, Mirtemir, Uygun, Said Ahrori, Majidi, M.Alaviya, Mirhodiy, Yashin, Q.Hashim, Yoqsil, Oybek, I.Usmoni, Nodi Mirza, on various topics: the image of nature, the sense of homeland, women's liberty and poems dedicated to the revolution, odes and epic poems, poems translated from other languages. In Uzbek poetry, which has a long tradition, most of these poets have left a great poetic legacy, combining the forms and means of world poetry with the existing poetic forms and means in our national literature, the development of the study of their literary heritage and steps towards renewal are also depicted in the graphic formation of the poems. First of all, the meaning of the "graphic formation of poetry" is clarified and, for this regard, the poems of Botu, Elbek, Oybek, N.Rahimi are put forward as examples. Differences in the base copy and available subsequent editions on graph construction will be identified and addressed. Concluding remarks are made on the errors made in the graphic formation of the poem.

Keywords. Graphic design, base copy, new editions, section, line, quartet, rhyme

XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligining shakllanish va sinovli yillari bo'lgani mutaxassislariga ma'lum. Bu esa, o'z navbatida milliy til va adabiyot muammolarini kun tartibiga qo'ygan edi. Bu borada "Taraqqiy", "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Sharq haqiqati" kabi gazetalar, "Inqilob", "Yangi yo'l", "Yer yuzi", "Alanga", "Bilim o'chog'i", "Maorif va o'qitg'uchi" singari ko'plab adabiy-badiiy jurnallar jamotchilik nazarini tortgan va ularda davrning til siyosati, adabiyotning ilmiy muammolari, adabiy taftish va adabiy tanqid masalalari keng muhokama qilindi.

O'zbek matbuoti tarixi rivojiga M.Abdurashidxonov, A.Avloniy, M.Behbudiy, Hoji Muin, A.Zohiriylarni kabi jadid ziyolilari katta hissa qo'shdi. "Taraqqiy" gazetasiga Ismoil Obidiy, "Xurshid" gazetasiga M.Abdurashidxonov, "Shuhrat" gazetasiga A. Avloniy, "Samarqand" gazetasiga Behbudiy kabi buyuk insonlar muharrirlik qildi. [2:16]. Bugungi kunda mazkur nashrlarning ba'zilar haqida tadqiqotlar olib borildi. "Al-Isloh" jurnali bo'yicha Qo'ldosh Pardayev "Milliy uyg'onish davri manbalarida adabiy va publitsistik muammolar talqini ("Al -Isloh" jurnali materiallari asosida)" nomli, Sayyora Halimova "Sadoi Turkiston" gazetasi yo'nalishi, til, uslub va janr xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. "Oyna" jurnali esa Gulnora Nishonova tomonidan o'rganilgan.

Xuddi shunday jurnallardan biri "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining o'rganilishi ham dolzarb ahamiyatiga molikdir.

“Maorif va o‘qitg‘uchi” haqidagi fikrlar adabiyotshunos olimlar Feruza Nuriddinova, Naim Karimov, Ziyoy Said asdarlarida uchraydi.

“Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalining 1925-1929-yillarida Cho‘lpon, N.Rahimiy, Elbek, G‘.Zafariy, Rahim Ali, A. Alaviy, Bonur, Bektosh, Botur, Oydin, G‘ayraty, H.Olimjon, Sh.Sulaymon, Botu, Oltoy, Gulbek, Mirtemir, Uyg‘un, Said Ahroriy, Majidiy, M.Alaviya, Mirhodi, Yashin, Q.H oshim, Yo‘qsil, Oybek, I.Usmoniy, Nodi Mirza kabi shoirlar tomonidan jami 178 ta she‘r berilgan bo‘lib, ular turli mavzularda. Tabiat tasviri, vatan tuyg‘usi, ayollar ozodligi haqida va inqilobga atalgan she‘rlar, qasidalar hamda she‘riy dostonlar, boshqa tillardan tarjima qilingan she‘rlar berilgan. Uzoq yillik an‘analarga ega o‘zbek she‘riyatida ushbu shoirlarning aksariyati milliy adabiyotimizda mavjud poetik shakl va vositalar bilan jahon she‘riyatidagi shakl va vositalarni uyg‘unlikda mujassam etgan ulkan she‘riy meros qoldirgan. Ularning adabiy merosini o‘rganish asnosida taraqqiyot, yangilanish sari odimlashi, she‘rlarining grafik shakllantirilishida ham kuzatiladi.

Avvalo, “she‘rning grafik shakllantirilishi” nimalarni nazarda tutishimizni aniqlashtirib olishimiz zarur. Biz “she‘rning grafik shakllantirilishi” deganda uning yozuvdagi ifodasi bilan bog‘liq jihatlarni nazarda tutamiz. Ya‘ni bu o‘rinda nazmiy asarning ko‘rinib turgan yozuvdagi tomoni anglashiladi. Kitobxon e‘tiboriga havola etilayotgan narsaning she‘r ekanligini ko‘rsatadigan birinchi ko‘rinish, omil uning yozuvdagi ko‘rinishidir. Kitobxon matnning grafik grafik shakllantirilishiga qarashi bilan, uning she‘r ekanligining tushunadi va uni she‘r deb qabul qilishga ruhiy tayyorlanadi. Shuning o‘zi ham grafik shakllantirilishning muhim ekanligini anglashga yetarli asos bo‘ladi.

Bundan tashqari she‘rning grafik shakllantirilishi muayyan darajada qo‘shimcha informatsiyani she‘rning grafik shakllantirilishi orqali ham yetkazishga harakat qiladi. Masalan, yozuvda bandning alohida ajralishi, bandlar orasiga yulduzchalar, yoki raqamlar qo‘yilishi, misraning zinapoya shaklida berilishi, so‘zning katta harf bilan emas, balki qoidadan chekinib, kichik harf bilan boshlanishi yoki to‘liq bosh harf bilan yozilishi, harflar orasini ochiqroq qilib qo‘yish, kursiv bilan yozish kabilar o‘quvchiga muayyan informatsiyani yetkazishga xizmat qiluvchi grafik vositalardir [9:61].

She‘rning grafik shakllantirilishi lirik asar kompozitsiyasining uch aspektdan biri bo‘lgan tashqi matniy qurilishi bilan bog‘liq. She‘rning matniy qurilishi asosiy matn va yondosh matn (ramka unsurlari)dan iborat bo‘ladi. D.Qur‘onovga ko‘ra, “misra va bandlarga bo‘linganlik lirik asarning bamisoli “tashrif qog‘ozi”, shuning o‘ziyoq zavqli o‘quvchida muayyan estetik kutuvni – she‘r otliq mo‘jiza bilan uchrashish hayajonini hosil qiladi va beixtiyor maromga solib o‘qishni boshlaydi. Boshlaboq

marom va so'zlar ma'nosi qo'shilishidan ohangni topadi, ohang ma'nolarni bir-biriga payvandlab mazmunga aylantiradi" [10: 3-14], - deb yozadi.

Anglashilganidek she'rning misra va bandlarga bo'linganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz ham ushbu fikrga qo'shilgan holda Botuning she'rlariga e'tibor qaratamiz.

She'rning bandlarga bo'linishida ham bir informatsiya bor. Shoir she'rni bandlarga bo'lganida, o'sha bandning mazmun va ritmik intonatsiyon jihatdan nisbiy tugallikka ega bo'lishini ta'minlaydi. Demak, band yetkazilmoqchi bo'lgan informatsiyaning muayyan darajada tugal qismi bo'ladi. Shu nisbiy tugal holida band she'rdagi boshqa bandlar (nisbiy tugal qismlar) bilan mazmuniy aloqaga kirishadi va ifodalanmoqchi bo'lgan fikrni u yoki bu tarzda ifodalanishiga xizmat qiladi [10:3-14]. Shuning uchun ham bandni kompozitsiya hodisasi deyiladi, sababi, u shaklni muayyan mazmun ifodasiga mos tarzda tashkil qilish natijasidir.

Botuning "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida "Adabiyot", "Kurash", "Erkliga", "Ozod qizg'a", "Paranji" kabi she'rlari berilgan bo'lib, bir qator she'rlarining boshlanishi, asosan, oxirida ikkitadan misrani alohida ajratib qo'yadi, qolgan joylarini esa 4+4+4 shaklida bo'lgan uchta kompozitsion bo'lak – band joylashtiradi. "Shoir nima uchun o'z she'rini bu tarzda bandlarga ajratdi? Ushbu shakl o'quvchiga qanday qo'shimcha ma'limotlar beradi?" degan savollarga shu tarzda bandlarga ajratilgan she'rlaridan javob izlaymiz. Masalan, "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1927-yil 12-sonida chop etilgan "Ozod qizg'a" she'ri shunday qurilgan. Ya'ni she'rning xotima qismi alohida ikki misrada berilgan.

Ozod qizg'a

Umid yoz, erkni ber tilga
Bu yoq erk o'ynag'on yoqdir.
Kulib baxsh et suyunch dilga,
Tilaklar gullagan choqdir.

Chekil butkul chekil g'amdan,
Fig'onlar yo'qq'a botsinlar.
Ko'zingni saqlag'il namdan,
Amallar nurlar otsinlar.

Ko'ring erkin go'zal yuzni,
Jahon ko'rsin, zamon ko'rsin.
Pok istiqbol bukub tizni,

Uzun sochni tarab o'rsun.

Ulug' yo'ldan yugur olg'a!

Ko'makchidir "o'roq-bolg'a!"

She'ning bandlari 4+4+4+2 ko'rinishida berilgan bo'lib, birinchi bandda paranjini tashlab, turli cheklovlardan ozod bo'lgan qizga murojaat etishdan boshlanadi. Erkli qizlar umid bilan erkin so'zlashini, yuzida kulgu, qalbida quvonch, tilaklari bisyor bo'lishini uqtiradi. Ikkinchi bandda ham murojaat davom etadi. G'amlardan chekilib, fig'onlarni yo'qqa chiqarish, ko'zlarida nam emas, ulug' amallar nur sohib turishi lozimligi ta'kidlanadi. Uchinchi bandda esa nutq ko'pchilikka qaratiladi. Bu ozod bo'lish quvonchi xalq bilan baham ko'rilib, shu kunlarga sababchi bo'lgan istiqbol go'zal, ozod qizlarni sochlarini tarab o'rishi aytiladi. Yuqorida ta'kidlangani kabi xotima alohida ikki misrada berilib, unda ozod qizga erk yo'lida olg'a yurishi, bunda unga mehnat, g'ayrat, shijoat ko'makchi bo'lishi uqdiriladi.

Mazmunan publitsistik she'ning oxirgi ikki misralik bandida masalaning yechimi ko'rsatiladi. Yakunlovchi ikkilik bandda, fikr boshqa bandlardan ko'ra keskinroq, qat'iyroq, tugal xulosaviy tarzda ifodalanadi. Matndagi asossiy fikr shu misralarga jo qilinadi va ushbu band avvalgi misradagi voqealarni, fikrlarni o'zida mujassam etadi. She'rda masala ayollar erki bo'lsa, uning yechimi mehnat, shijoat va g'ayrat bilan unga erishishdir.

Ko'rilayotgan she'r (makromatn) ikki misralik xotima qismi bilan birgalikda 4 band (mikromatn)dan tarkib topgan. Har bir mikromatn nisbiy tugal mazmunni va hammasi birlikda bitta umumiy mazmunni ifodalaydi. O'sha umumiy matnning strukturasini gap qolipida tushuntirmoqchi bo'lsak, 4ta gapdan tashkil topgan murakkab qo'shma gap hosil bo'ladi:

Erkli qizlar erkin so'z, yuzida kulgu, qalbida quvonch, tilaklari bisyor bo'ladi, ko'zlarida nam, fig'on, g'am emas, ulug' amallar nur sochadi, ozod, go'zal yuzni hamma, butun jahon ko'radi, erk yo'lida mehnat, g'ayrat, shijoat ko'makchi bo'ladi!

Ko'rib turganimizdek, ushbu gap murakkab qo'shma gap bo'lib, to'rtta sodda gap o'zaro ohang yordamida bog'langan. Bu qo'shma gapning qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap turiga mansub. Shu tariqa asar bitta butunlikka aylanadi, ayni vaqtda uning har bir qismi aniq ajralib, har birining vazifasi, har birining maqsadi, vazifasi yaqqol farqlanib turadi. She'ning bu tartibda bandlarga ajralishi o'z-o'zidan bo'lmay. Botu buni aniq maqsadni ko'zlagan holda amalga oshirganligi ko'rinib turibdi. She'r dastlab "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida e'lon qilinib, so'ng 2004-yilda

Naim Karimov va Sherhali Turdimovlar tomonidan nashrga tayyorlangan “Tanlangan asarlar” [1:153]da, 1980-yilda S.Mamajonov va P.Qobulovlar tomonidan nashr etilgan “Yoz kuni” [2:107] to‘plamida asosiy tayanch nusxadagi kabi saqlangan, 2016-yilda Naim Karimov va Sherhali Turdimovlar tomonidan nashrga tayyorlangan Botuning “Tanlangan asarlar” [3:79]ida va 2020-yilda Mahmud Hodiyeu tomonidan nashrga tayyorlangan Botuning “Tanlangan asarlar”[4:79]ida esa negadir she’rning oxiridagi ikki misralik xotima qismi tashlab ketilgan. Bu, albatta, she’r mazmunining tugallanmay qolishiga, o‘quvchiga to‘la anglashilmay qolishiga sabab bo‘lgan. Bu ilk nashrdagi publitsistik ruhga putur yetkazgan. Bizningcha, Botuning she’r bandlarini bu tarzda ajratishi o‘ziga xos bir uslub. Chunki shoir bu o‘rinda an’anaviy she’riyatdagi qat’iy tartib-qoidalardan voz kechgan. Botuning lirik merosida oxirgi bandi ikki, qolgan barcha bandlari to‘rt misrali she’rlar ko‘p uchraydi.

She’rning oxirida ikki misrani ajratib qo‘yib, unda xulosa va xotimani joylashtirish jurnalda berilgan Cho‘lponning “Dala yo‘llaridan”, “Quchoq tuproq”, “Kuz yomg‘iri” she’rlarida va Elbekning “Sirdaryo”, “Ey xotun”, “Kuyganlar yoki turmush muammosi”, “Ko‘klam chog‘i yaproqlar”, “Turmushmi bu” nomli she’rlarida ham uchraydi.

Elbekning “Bibixonim madrasasi” [5:60] she’ridagi bandlar misralari quyidagicha 4+4+4+4+4+2 ko‘rinishida berilgan. Birinchi bandida ushbu madrasaning o‘tmishdan yodgorlik ekanligi, ikkinchi bandda bu haybatli binoning yemirilib borayotgani, uchinchi bandda botirlarning suyaklariday yig‘ilgan bino kirpichlari yuraklarga alam to‘ldirishi, to‘rtinchi bandda bu holdan muallifning ko‘zlaridan yosh emas, olov chiqayotgani, beshinchi bandda madrasaning bu ahvoli, albatta, bir kun kelib tuzalishi va oxirgi ikki misralik bandda bu kamchilik mangu emasligi, yangilik bo‘lishi aytib o‘tiladi. Oxirgi ikki misrada xotima o‘rin olgan bo‘lib, madrasaning kelajakda ta’mirlanib, ko‘rkam ko‘rinishga keltirilishiga umid bog‘lanyapti.

“Bibixonim madrasasi” she’ri 1999-yilda Haydarali Uzoqov tomonidan nashrga tayyorlangan Elbekning “Tanlangan asarlar”[6:60]ida tayanch nusxadagidek emas. Oxirgi ikki misralik band o‘zidan oldingisiga qo‘shib yuborilgan va she’r bandlari 4+4+4+4+6 ko‘rinishga kelgan. Ortiqboy Abdullayev tomonidan nashrga tayyorlangan “Mungli qushim” [7:142], Ulug‘murod Amonov tomonidan nashrga tayyorlangan “Armug‘on yolqinlar” [8:31] she’riy to‘plamlarida esa ushbu she’r hech qanday bandlarga ajratilmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri 22 misralik bir band shaklida berilgan. Holbuki, bu tartibda bandlarga ajratish xatoligini qofiyalanish tartibi ham ko‘rsatib turibdi. Bu kabi shaklga ega bo‘lgan she’rlarda yakunlovchi ikkilik bandda fikr boshqa bandlardagidan ko‘ra keskinroq, qat’iyroq, tugal xulosaviy tarzda

ifodalanadi. To'plamda she'r bandlarining o'zgartirilishi natijasida emotsionallik, ekspressivlik susaygan.

“Maorif va o'qitg'uvchi” jurnalida she'rlari chop etilgan shoirlarning ichida N.Rahimiy 21 ta she'rini chop ettirib, birinchilikni egallaydi. Uning she'rlari turlicha mavzularda. Sevgi-muhabbat, ayollar erki, tabiat tasviri, vatanparvarlik kabi g'oyalari kuylanadi. N.Rahimiy “Binafshalar” (1929-yil), “Mavjlar” 1930-yil), “Qizil yaproqlar” (1927-yil), “Yuksalish qo'shiqlari” (1931-yil) kabi she'riy to'plamlar muallifi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek uning she'rlari jurnalimizda anchagina. Shu sabab N.Rahimiyning “Kelingiz” she'riga to'xtalib o'tamiz. Jurnalda ushbu she'r 4+6 misralik ikki band ko'rinishida berilgan. Birinchi bandda kuchli bilak, so'nmas tilak charchashning yovi bo'lsa qo'rqqoq er hurlikning yovi ekanligi, o'smir o'sishni istashi, yosh yigit esa turg'unlik istamasligi haqida aytilsa, ikkinchi olti misralik band esa yosh yurak olov bo'lib uchqun sohib turishini, quyosh kabi haqiqat yuzini ochishini ta'kidlaydi va yoshlikdan foydalanib ko'klarga uchishini, ya'ni yuqori natijalarga erishish lozimligini uqdiradi.

Kelingiz

Kuchlik bilak, so'nmas tilak, charchashning yovidir,

Qo'rqqoq er, qayg'u yer, hurliqning yovidir.

Er yigit, yosh to'lqin, turg'unlik istamas,

Yosh o'smir o'smoqdan boshqani tilamas.

Yosh yurak olovdir, uchqunlar sochadir,

Quyoshdek haqiqat yuzini ochadir.

Kelingiz o'rtoqlar!

To'planing jo'ralar!

Yoshliqni quchayliq,

Ko'klarga Uchayliq!

1926-yil

Ammo ushbu she'r shoirning o'zi tomonidan 1927-yilda nashr etilgan “Qizil bayroqlar” she'riy to'plamida jiddiy o'zgarishga uchraganiga qaraganda, shoir ushbu she'rni qayta ishlagan. To'plamda she'r 4+5 ko'rinishida berilgan. Bu hol bandlarning tuzilish qoidalariga to'g'ri kelmaydi, albatta. She'r mazmuniga, so'zlarning o'zaro qofiyalanishiga e'tibor bersak, she'rning 4+6 shaklida qismlarga ajratilishi maqsadga muvofiq. Ya'ni she'r odatdagidek ikki bayt, lekin ikkinchi baytning to'rtinchi “To'planing jo'ralar” misrasi tushirib qoldirilgan. Yana she'rning birinchi band birinchi misrasi “Kuchlik bilak, so'nmas tilak, charchashning yovidir” shaklida emas,

“Yosh bilak ezilmas, charchashning yovidir” shaklida berilgan. Bizningcha, bu yerda she'rning vazni to'g'rilangan. She'rda misralardagi bo'g'inlar soni birinchi asosiy qatorlarda 12 ta, oxirgi to'rt qatorda esa 6ta. Tayanch nusxada berilgan “Kuchlik bilak, so'nmas tilak, charchashning yovidir” misrasi 14 bo'g'indan tashkil topmoqda.

Shu kabi grafik shakllanishdagi o'zgarishlar Oybek she'rlarida ham uchraydi. “Maorif va o'qitg'uvchi” jurnalining 1925-yil 3-sonida berilgan “Erkin qush” she'ri berilgan. Ushbu she'r ilk bor mazkur jurnalda, so'ngra “Tuyg'ular” va “Asarlar” (1-tom) to'plamlarida bosilgan. She'r 1924-yil sentabr oyida yozilgan. She'r qo'lyozmasi saqlanmagan. Ushbu she'r jurnalda 8+10 shaklida 2 band 18 misradan iborat ko'rinishda chop etilgan. Ikkinchi bandning oxirgi 10-misrasi boshqa bandlardan ko'ra ancha keyin chap tomonga surib yozilgan. Bu misra o'zida xotimani joylaydi. She'rning birinchi bandida muallif tol shohiga qo'ngan go'zal bir qushdan, yoniga tushib she'r aytishini, shunday qilsa qalbidagi alam tarqalib, mahzun ruhi qanot qoqishini, uning nag'malari orzulari shamini yoqishini aytadi. Ikkinchi bandda esa qush muallifga endigina erkinlikka chiqqanini, shu paytgacha tutqun ekanligini, hozircha uni chaqirmay turishini, bahorda ochilgan chechaklarni quchmoqchi ekanligini aytadi va tiniq ko'kda qanot qoqib uchib ketadi.

Ushbu she'r 1975-yilda chop etilgan Oybekning 19 tomlik “Mukammal asarlar to'plami” 1-tomida xuddi tayanch nusxadagidek 8+10 ko'rinishida berilgan. 1980-yilda Omon Matjon tomonidan nashrga tayyorlangan “Sozim” she'riy to'plamida she'r 8+4+6 ko'rinishida berilgan. She'r 3 bandga bo'linganligi sababli aslyatdagi ikkinchi bandning ma'nosi ham o'rtasidan bo'lingan. Ya'ni qushning nutqi ikkiga ajralib, qayta nashrdagi ikkinchi bandda ma'no tugallanmay qolgan. Aslida, har bandda ko'zlangan ma'no oxiriga yetishi kerak.

Biz ushbu ishda jurnalda she'rlarning grafik shakllanishiga oid ba'zi kamchiliklarni aniqlashga harakat qildik. Albatta, ularning hammasini ko'rsatishning imkoni yo'q. Biz bunday hollarning qanday salbiy oqibatlariga olib kelishini ko'rsatib berishga harakat qildik. O'ylaymizki, bu misollar she'rning yozuvdagi ko'rinishi va ramka unsurlarining muhimligini anglatib, ularga munosabatni o'zgartirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. - Toshkent: O'z, 2006. – B.117
2. Pardayev Q. ““Milliy uyg'onish davri manbalarida adabiy va publitsistik muammolar talqini (“Al –Islah” jurnali materiallari asosida)”.Filol. fan.nom..diss. – Toshkent, 2010. – B.16.

3. Botu. Tanlangan asarlar. Sharq. (Nashrga t-chilar N.Karimov va Sh.Turdimov) Toshkent– 2004. 153-bet.
4. Botu. Yoz kuni. G'ofur G'ulom. (Nashrga t-chilar S.Mamajonov va P.Qobulov) 1980. 107-bet.
5. Botu. Tanlangan asarlar. Ma'naviyat. (Nashrga t-chilar N.Karimov va Sh.Turdimov) Toshkent-2016.79-bet.
6. Botu. Tanlangan asarlar. Ma'naviyat.(Nashrga t-chi M.Hodiyev) Toshkent-2020.79-bet.
7. Elbek. Sirdaryo she'ri. //Maorif va o'qitg'uvchi. 1925. 4-son.52-53-betlar
8. Elbek. Tanlangan asarlar. Sharq. (Nashrga t-ch H.Uzoqov) Toshkent – 1999.60-bet.
9. Elbek. Mungli qushim. Nashrga tayyorlovchi O.Abdullayev. Abdulla Qodiriy nashriyoti. Toshkent 1999 142.
10. Elbek. Armug'on yolqinlar.Turon zamin ziyo.(Nashrga t-chi U.Amonov) Toshkent-2017. 31-bet.
11. S.Islomova.Cho'lpon she'rlarining matniy tadqiqi va ilmiy-tanqidiy matnini yaratish. Dissertatsiya. Andijon – 2021.61-bet
12. Qarang: Qur'onov D.Talqin imkonlari. – Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2015. 3-14-betlar.